Choʻlpon (1897-1938)



Choʻlpon (1897-1938)

Oʻzbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon 1897 yilda Andijonning Qatorterak mahallasida savdogar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus oʻgʻli (1874 — 1929) dastlab dehqonchilik, soʻngra bazzozlik bilan shugʻullangan. Taniqli jurnalist va yozuvchi Moʻminjon Muhammadjonov «Turmush urinishlari» kitobida qayd etishicha, Choʻlponning otasi Sulaymonqul oʻz davrining yetuk ziyolisi, ma'rifatparvar kishisi boʻlgan. U «Rasvo» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan, devon yaratgan.

Choʻlpon avval eski maktabda, soʻngra madrasalar va rus-tuzem maktabida tahsil olib, arab, fors va rus tillarini mukammal oʻzlashtiradi. Mutolaa yoʻli bilan esa turk, nemis va ingliz tillarini oʻrganadi. Sharq va Gʻarb ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan oziqlanadi. Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Umar Hayyom, Alisher Navoiy kabi buyuk soʻz san'atkorlari ijodini mehr bilan oʻrganadi.

Choʻlpon dunyoqarashi va ijodining shakllanishiga asr boshlaridagi demokratik inqiloblar hamda jadidchilik harakati katta ta'sir koʻrsatgan.

Choʻlponning ijodi 1913—1914 yillardan boshlangan boʻlib, u avval «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» va nihoyat «Choʻlpon» (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qildi. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida oʻz xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qoʻshadi. Choʻlponning dastlabki asarlari «Sadoi Turkiston», «Sadoi Fargʻona» kabi mahalliy gazetalarda, shuningdek, Orenburgda chiqadigan «Shoʻro» jurnalida nashr etiladi. Choʻlponning «Ishtirokiyun», «Qizil Bayroq», «Turkiston», «Buxoro axbori» kabi gazetalardagi faoliyati ham uning ijodiy shakllanishida maktab boʻlib xizmat etadi.

Choʻlpon ocherknavis va publitsist sifatida ham barakali ijod qildi. Bu borada ayniqsa, uning «Adabiyot nadir?», «Muhtaram yozuvchilarimizga» kabi maqolalari adabiyotning maqsad va vazifalarini anglashda muhim rol oʻynadi. U 1914—1917 yillarda yaratgan «Qurboni jaholat», «Doʻxtir Muhammadiyor» singari hikoyalari, «Vatanimiz Turkistonda temir yoʻllar» singari maqolalarida madaniyat va ma'rifat targʻibotchisi sifatida maydonga chiqdi. U Oktyabr toʻntarishidan keyingi 1920—1924 yillarda hayotda sodir boʻlayotgan xush va noxush oʻzgarishlarni qalamga oldi. «Yoʻlda bir kunduz», «Yoʻlda bir kecha», «Sharq poyezdi keldi», «Sharq uygʻongan», «Quturgan mustamlakachilar», «Yoʻl esdaligi» singari oʻnlab ocherklari va publitsistik maqolalarida chorizm mustamlakachilari va mahalliy hokim sinf yetkazgan jabru jafolar yetmaganidek, fuqarolar urushi davrida roʻy bergan fojealarni qoraladi.

Choʻlpon 1922 — 1926 yillarda oʻzining «Uygʻonish», (1922), «Buloqlar» (1923), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1935) kabi toʻrtta she’riy toʻplamini nashr ettirdi. 30-yillarga kelib, «Joʻr» kabi she’riy toʻplamini tayyorladi. Ammo «Soz»i chop etiladi-yu, «Joʻr» toʻplami qatagʻonlik tuzogʻiga ilinib, qolib ketadi. Shoirning toʻplamlari orasida «Buloqlar» (1923) alohida ajralib turadi. Toʻplam besh boʻlimdan iborat boʻlib, ular «Sharq uchun», «Sezgilar», «Sevgi», «Qora yoʻllar» va «Qor qoʻynida» deb nomlanadi. Shoirning oʻzi qayd etishicha, mazkur she’riy guldasta «jahon fotihlari changalida ezilib yotqon Sharq oʻlkalariga» bagʻishlangan.

Choʻlpon 1925 yillarga kelib, «Muhit kuchli ekan, egdim boʻynimni» deya ijtimoiy qarashlarini oʻzgartirishga majbur boʻlganligini e’tirof etadi. Ammo shunga qaramay, shoir yaratgan ikki yuzdan ortiq she’riy asarlar el-yurt baxti, kelajagi, mustaqilligi, ozodligi uchun kurashning yorqin solnomasi desa boʻladi.

Choʻlpon yetuk lirik shoirgina emas, balki «Novvoy qiz», «Oydin kechalarda», «Qor qoʻynida lola» kabi oʻnlab hikoyalar, «Kecha va kunduz» (1936) kabi ajoyib roman ham yaratgan iste’dodli adibdir.

U dramaturg sifatida ham salmoqli ijod qilgan. Uning «Halil farang», «Choʻrining isyoni» kabi kichik pesalari, «Oʻrtoq Qarshiboyev», «Mushtumzoʻr» kabi dramalari hamda koʻp vaqt sahnadan tushmagan «Yorqinoy» pesalari mashhur boʻlgan. Shuningdek, rus yozuvchisi V. Yan bilan hamkorliqda «Hujum» dramasini yaratgan.

Choʻlpon mohir tarjimon sifatida V. Shekspirning «Hamlet» fojeasini, A. S. Pushkinning «Dubrovskiy» qissasini va «Boris Godunov» kabi pesalarini, M. Gorkiyning «Ona» romanini va boshqa koʻplab asarlarni oʻzbek tiliga oʻgirgan.

Choʻlpon ham Fitrat va Abdulla Qodiriylar kabi qatagʻonlik davrining qurboni boʻlgan. U 1937 yilning 14 iyulida qamoqqa olinib, 1938 yilning 4 oktyabrida otib tashlangan.

Choʻlponning asarlari uzoq vaqt tanaffusdan keyin 1991 yili «Yana oldim sozimni» nomi bilan nashr etildi.

Hozirgi kunda Choʻlpon nomida nashriyot, koʻcha, mahalla, kutubxona va maktablar bor.

Vafotidan soʻng Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991) va «Mustaqillik» ordeni (1999) berilgan.

2023-09-10 16:14:02